**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**“XITOYSHUNOSLIK” FAKULTETI**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

# O`ZBEKISTON - XITOY MUNOSABATLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI


**Bajardi:** “Jahon siyosati” ta’lim yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi Hazratov Javohir Hamdamzoda_______________

**Ilmiy rahbar:** “Xitoy siyosati, tarixi va XMdagi o`rni” kafedrasi o`qituvchisi G`oziyev R.R. ___________________

**Ilmiy maslahatchi:** siyos.f.n,dots. Umarov X.P.________


Toshkent – 2016

# MUNDARIJA

**KIRISH……………………………………….…………………………………….3**

**I BOB. XALQARO MUNOSABATLARNI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI..........................................................................9**

1.1. Xalqaro munosabatlar tushunchasining mohiyati va nazariy jihatlari….…………9

1.2. O`zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konseptual asoslari……….……..20

1.3. Xitoy Xalq Respublikasi tashqi siyosatining xususiyatlari………..…………….29

**II BOB. O`ZBEKISTON VA XITOY MUNOSABATLARI RIVOJLANISHINING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI………..…………………………………….41**

2.1. O`zbekiston va Xitoy munosabatlarining tarixiy ildizlari va bugungi holati..…...41

2.2. O`zbekiston va Xitoy hamkorligining asosiy yo`nalishlari……….……………...46

2.3. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti: O`zbekiston-Xitoy munosabatlarining istiqbolli kafolati sifatida……………………………….………………….……….60

**XULOSA………………………………………………………………………68**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI……………………………..71**

# KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Hozirgi zamon siyosiy jarayonlari davlatlararo hamkorlikning shakllantirilishi orqali taraqqiyotga erishishning muhim omil ekanligini o`zida namoyon etmoqda. Bugungi kunda xalqaro munosabatlarning asosiy talablaridan biri - har bir davlat o`z milliy manfaatlarini ta'minlashda ikki tomonlama va ko`p tomonlama hamkorlik omiliga alohida urg`u berishidan iborat. O`zbekiston ham mustaqillikka erishgach, jahon hamjamiyatining rivojlangan davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalardagi aloqalarini yanada rivojlantirish yo`lidan jadal odimlamoqda. Aynan bu jarayonlar dunyoning rivojlangan davlatlari bilan keng yo`lga qo`yilganligi O`zbekistonning jahon hamjamiyatida o`z o`rinini mustahkamlashi bilan birga mamlakatning barqarorligi va fuqarolarning farovonligini ta'minlab, milliy manfaatlarimiz ro`yobga chiqishida o`ziga xos omil bo`lib kelmoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov "... tashqi siyosatimizning ustuvor yo`nalishlarini belgilashda ... hayotiy ahamiyatga ega bo`lgan milliy manfaatlarimiz va mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlash nuqtai nazaridan yondashmog`imiz kerak"[1],-deya ta'kidlaydi. Shuning bilan birga, yurtboshimiz o`z diqqatini tashqi siyosiy faoliyat masalalariga qaratar ekan, quyidagilarni ta'kidlab o`tadi : "... davlatimiz tashqi siyosatining ma'no-mazmuni va maqsadi bitta - u ham bo`lsa, O`zbekiston manfaati va yana bir bor O`zbekiston manfaatidir. Biz milliy manfaatlarimiz mos keladigan barcha mamlakatlar bilan faol hamkorlik qilishga tayyormiz"[2].

Xitoy Xalq Respublikasining bugungi kundagi jadal sur'atlardagi taraqqiyoti, mamlakatlarimiz o`rtasidagi qadimdan mavjud bo`lib kelgan do`stona aloqalarning mustahkamlanib borishi, har ikkala mamlakat rivojlanish uchun zarur bo`lgan iqtisodiy va xavfsizlik borasidagi hamkorlikning zarurligi XXR xuddi shunday hamkorlik

---

[1] Каримов И.А. Бизнинг бош максадимиз – жамиятни демократиялаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир / Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. – Т.: Ўзбекистон, 2005. 13-жилд. – Б. 195.

[2] Каримов И.А. Бизнинг бош максадимиз – жамиятни демократиялаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир / Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. – Т.: Ўзбекистон, 2005. 13-жилд. – Б. 198.

qilishimiz mumkin bo`lgan davlatlar sirasiga kirishini o`zida ifoda etadi. Xitoyning bugungi kunda jahon hamjamiyatida barcha sohalarda rivojlanib borayotganligi hech birimizga sir emas, albatta. Bu iqtisodiy soha bo`ladimi, siyosiy soha bo`ladimi, madaniy soha bo`ladimi - bularning hammasida uning nufuzi tobora yuksalib bormoqda. Muammolarni yechishning kuch ishlatishga asoslanmagan, ancha tejamli va shu bilan bir vaqtda samarali yo`llarini doimiy ravishda izlash, shuningdek, ayrim davlatlar bilan alohida munosabatlarga urg`u berish Xitoy tashqi siyosatining muhim xususiyati hisoblanadi [1]. XXR tinchlikka asoslangan mustaqil tashqi siyosatni izchil amalga oshirmoqda, jahondagi ko`p qutblilikni har tomonlama qo`llab-quvvatlamoqda, iqtisodiyotdagi globallashuv jarayonlariga faol moslashmoqda, mintaqaviy hamkor-likning barcha yo`nalishlarda ishtirok etmoqda, odilona va oqilona yangi xalqaro siyosiy va iqtisodiy tartibni bor kuchi bilan ilgari surmoqda, tinchlikni barqaror etish va insoniyatni rivojlantirish kabi masalalar bilan bog`liq adolatli ishlarini rag`bat-lantirmoqda. XXRning takliflari va tashabbuslari xalqaro hamjamiyat tomonidan tobora keng ma’qullanmoqda va qo`llab-quvvatlanmoqda. Xitoyning jahonda yirik davlat sifatidagi o`rni, ahamiyati va rolini ma’qullagan va ijobiy baholagan mamlakatlar soni kundan-kunga ko`payib borayotganligi barchamizga ma’lumdir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning davlat o`zining va jahondagi boshqa mamlakatlarning tajribasidan olingan barcha foydali masalalarni inkor qilmagan holda mamlakatning qat’iy pozisiyasi, o`z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo`lini tanlab olishi lozim, degan fikri xorijiy mamlakatlarning rivojlanish jarayonlari, ularning tajribalaridan foydalanish zarurligini yana bir bor ta’kidlaydi. Zero, O`zbekiston tashqi siyosatda o`z yo`liga va zalvorli so`ziga ega. Tashqi siyosatdagi eng asosiy mezonimiz, eng avvalo, milliy davlatimiz manfaatlarini ko`zlab, ularni barcha imkoniyatlar bilan himoya etgan holda ish yuritishdan iborat[2].

[1] Бергер Я. Китай – глобальная держава XXI века. // Азия и Африка сегодня. – М., 2006. – № 8. – С. 34.

[2] Каримов И.А.Биз қуриш, яратиш йўлидан бораверамиз *(1995 йил 30 август).* Бунёдкорлик йўлидан.-Асар.тўп., 4-жилд, -Б.9.

Yuqoridagi omillardan kelib chiqqan holda, Xitoy Xalq Respublikasini o`rganish, uning taraqqiyot omillarini tahlil qilish va uni davlatlarning ichki holatiga moslashtirgan holda joriy etish bilan bog`liq masalalarni hal etish o`zining dolzarbligi bilan ahamiyatlidir.

**Mavzuning o`rganilganlik darajasi.** Xalqaro munosabatlar va o`zaro hamkorlik masalalari barcha zamonlarda ham siyosiy tadqiqotlarning diqqat markazida bo`lib kelgan.

Xalqaro munosabatlar tushunchasi va uning nazariy jihatlari qator xorij olimlarining asarlarida o`z ifodasini topgan. Bularga A.V.Torkunova, A. D. Bogaturov, V.V. Averkov, N.A. Lomagin, V.E. Kuznetsov, A.V. Lisovskiy, A.Y. Pavlov, v S.F. Sutirin, P.A. Sigankov, G.V. Kamenskoy, O.A. Kolobova, E.G. Solovyeva, Y.A. Nikitina, V.A. Achkasov, S.A. Lansov kabilarni kiritishimiz mumkin[1].

O`zbek olimlaridan X.T. Odilqoriyev, D.X. Razzoqov, U.A.Hasanov, S. Jo`rayev, M.M. Muhammadsidiqov, B.E. Ochilov, R.F. Farmonov, N.O`. To`laganova, M.T. Turdiyev, Q.A. Jo`rayev, U.N. Muhammadiyev, G.I.Yuldasheva, M. Qirg`izboyev kabilar xalqaro munosabatlar nazariyasining tahlili bilan bog`liq masalalarni ancha mufassal yoritganlar[2].

O`zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o`rtasidagi hamkorlik masalalari ko`plab o`zbek olimlari tadqiqotlarida o`z ifodasini topganligini ko`rishimiz

---

[1] Торкунова А.В. Современные международные отношения. Учебник. М.: «Российская политическая энциклопедия» (РОССПЭН), 1999. - 584 с.; Богатуров А. Д., Аверков В.В. История международных отношений 1945-2008. Учеб. Пособие / М.: Аспект Пресс, 2010.-520 с.; Ломагин Н.А., Кузнецов В.Э., Лисовский А.В., Павлов А.Ю., Сутырин С.Ф. : Введение в теорию международных отношений и анализ внешней политики. Учеб. Пособие. Санкт-Петербург.:2001. -166 с.; Цыганков П.А. Международные отношения: Учеб. пособие / Ин-т "Открытое о-во". - М.:Новая шк.,1996.- 317с.; Каменской Г.В., Колобова О.А., Соловьева Э.Г. История международных отношений: Учебное пособие . М.: Логос. 2007.-712 с.; Никитина Ю.А. Международные отношения и мировая политика.Учебное издание. М.: Аспект Пресс, 2009.-142с.; Ачкасов В.А., Ланцов С.А. Мировая политика и международные отношения: Учебник.-М.: Аспект Пресс,2011.-480 с.

[2] Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik: Oliy ta’lim muassalari talabalari uchun darslik.-T.: O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti,-352 b.; Hasanov U.A. Xalqaro munosabatlar nazariyasiga kirish. O`quv qo`llanma . T.: 2007.-146 b.; Jo`rayev S. Zamonaviy xalqaro munosabatlar. O`quv qo`llanma. T.: Akademiya 2007.-184 b.; Muhammadsidiqov M.M. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. O`quv qo`llanma.-T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti,2013.-172 b.; Одилқориев Х.Т.,.Очилов Б.Э. Ҳозирги замон халқаро оммавий ҳуқуқи.Дарслик.Т.:2007.-697 b.; Фармонов Р.Ф., Тўлаганова Н.Ў., Турдиев М.Т., Жўраев Қ.А., Муҳаммадиев У.Н. Замонавий сиёсатшунослик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.Т.:2008.-208 b.; Yuldasheva G.I. Xalqaro munosabatlarning metodologik aspektlari.O`quv qo`llanma.T.:2009.-215 b.; Qirg`izboyev M. Siyosatshunoslik: Oliy ta’lim muassalari talabalari uchun darslik.-T.: Yangi asr avlodi,2013.-524 b.

mumkin. Bularga XXR tarixi va tashqi siyosati yo`nalishida A. Xo`jayev, I.N. Bekmuratov, N.E. Karimova, Sh.A. Yovqochev, U.Y. Idirov, Sh.I. Shazamanov, A. Sharapov, S.S. Safoyev[1], shuningdek, A.M.Qosimov, I.Vaskin, R.Z.Jumaev, S.Jo`rayev kabi olimlarning qator ilmiy asarlari va maqolalarini e'tirof etish mumkin[2]. O`zbekiston va XXR iqtisodiy masalalarida G.A. Melibayeva, F.Sh. Gaziyev, A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyev [3], shuningdek, I.Asadullayev, V. Paramonov, A.B.Xodjayev, A.Xodjayev, M.Sharipov, D.Qurbonov[4] kabilarni kiritishimiz mumkin.

Chet ellik mualliflarning tadqiqotlari orasida K.V.Allen va I.A.Makvadonning hozirgi bosqichda XXR tashqi harbiy siyosatining xususiyatlarini yoritishga bag`ishlangan ishi alohida ajralib turadi[5]. Xitoyning Markaziy Osiyo mintaqasidagi tashqi siyosati masalalari Xuashen Chjaoning monografiyasida ayniqsa to`liq yoritib berilgan[6]. MDH mamlakatlari olimlarining ishlari orasida Yu.M.Galenovichning hozirgi Xitoy tashqi va mudofaa siyosatining xususiyatlarini yoritishga bag`ishlangan tadqiqoti

---

[1] Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар.-Т.:"Ўзбекистон миллий энсиклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007.-280 б.; Бекмуратов И.Н. Деятельность Шанхайской организации сотрудничества и процесс ее институционализации. Дисс.Т.:2006; Bekmuratov I.N. Xitoy tashqi siyosati mentaliteti: yangi asr ehtiyoji.//Maqola. "Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. T.:2014.; Каримова Н.Э. Региональные аспекты современных международных отношений. Т.:2013.168 с; Ёвқочев Ш.А. Сиёсат ва дин // Ўқув қўлланма. Т.:2013.-57-б.; Идиров У.Ю. Хитой: ислоҳотлар стратегиясининг тарихий хусусиятлари.// Мақола. "Хитойшуносликнинг долзарб масалалари" республика илмий-амалий конференсияси. Т.:2014.; Шазаманов Ш.И. Ислоҳотлар даврида Хитой Халқ Республикаси // Монография. Т.: Тошкент давлат шаршунослик институти,2014.-167 б.; Қаранг: Шарапов А.Бугунги Хитой Халқ Республикасининг Жаҳон сиёсатидаги ўрни.// Мақола. "Хитойшуносликнинг долзарб масалалари: филология, фалсафа,тарих, иқтисод ва сиёсат" мавзуидаги XII илмий-амалий материаллари тўплами. Тошкент, 28-ноябр 2015-йил.-Т.: ТДШИ,2015.-286-б; Сафоев С.С. Марказий Осиё геосиёсати.//Монография.Т.:ЖИДУ,-2005.-160 б.;

[2] Касымов А.М., Васькин И. Основные направления внешней политики Узбекистана. – Т.: Узбекистан. 1994; Жумаев Р.З. Политическая система Республики Узбекистан: становление и развитие. – Т.: изд–во «Фан» АН Республики Узбекистан. 1996. – 207 с.; Жўраев С. Ўзбекистон Республикаининг ташқи сиёсати ва дипломатияси ўқув қўлланма Тошкент Академия 2007 302 б.

[3] Melibayeva G.A., Gaziyev F.Sh. Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi/O`quv qo`llanma.-T.:2011,-120 b.;Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik.-T.: Baktria press,2015.-584 b.

[4] Қаранг: Асадуллаева И.Р. Хитой ташқи иқтисодий фаолиятига глобаллашувнинг таъсири: умумжахон тенденциялар ва намоён бўлиш хусусиятлари: Дисс. и.ф.н. – Тошкент, 2006; Парамонов В.В. Китай и Центральная Азия: состояние и перспективы экономических отношений // Conflict Studies Research Centre. Russian Series 05/25 (R). – Surrey: Defense Academy of the United Kingdom, May 2005. – 21 стр.; Ходжаев А.Б Фактор энергетической безопасности в экономических приоритетах Китая и Узбекистана: Автореф. Дисс. к.э.н. – Ташкент. 2009; Ходжаев, Аблат. Китайский фактор в Центральной Азии // АН РУз Инс-т Востоковедения ит. Беруни. – Т.; «Фан», 2004. -137 стр.; Курбанов Д.Дж. Привлечение прямых иностранных инвестиции в КНР: опыт и возможности расширения узбекско-китайского сотрудничества: Дисс. к.э.н. – Т., 2002.

[5] Қаранг: Allen K.W., McVadon E.A. China's Foreign Military Relations. – Washington, D.C., 1999.

[6] Қаранг: Хуашэн Чжао. Китай, Центральная Азия и Шанхайская организация сотрудничества. – М.: Московский центр Карнеги, 2005.

alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi[1]. Shuningdek, bir guruh olimlarning Xitoyning hozirgi jahon siyosatining o`rnini aniqlashga bag`ishlangan qo`shma tadqiqoti ham ulkan nazariy va amaliy qimmatga ega[2].

Shunday qilib, mazkur tadqiqot doirasida amalga oshirilgan mavjud adabiyotlar tahlili O`zbekiston va Xitoy munosabatlari ancha mufassal yoritilganiga qaramay, uning hozirgi davri mufassal o`rganilishi lozimligi va bu pirovard natijada tanlangan mavzuning dolzarbligini hamda u O`zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy amaliyoti talablariga javob berishini ko`rsatadi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.** Mazkur tadqiqot ishi o`z oldiga O`zbekiston va Xitoy munosabatlari rivojlanish tendensiyalarini o`rganishni maqsad qilib qo`ygan.

Mazkur maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalarni qo`yish va hal qilishni nazarda tutadi:

– Xalqaro munosabatlar tushunchasining nazariy asoslarini o`rganib chiqish;
– O`zbekiston va Xitoy tashqi siyosatiga nisbatan hozirgi nazariy yondashuvlarni tadqiq etish;
– O`zbekiston va Xitoy munosabatlarining tarixiy ildizlarini yoritish;
– O`zbekiston va Xitoy tashqi siyosatining hozirgi holatini tahlil qilish;
– O`zbekiston va Xitoy o`rtasidagi mintaqaviy va global xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan faoliyat jarayonlarini ko`rib chiqish;
– O`zbekiston va Xitoyning iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalardagi munosabatlarini o`rganish;
– O`zbekiston va Xitoyning Shanhay Hamkorlik Tashkiloti doirasidagi faoliyatini ochib berish;
– O`zbekiston va Xitoy o`rtasidagi munosabatlar istiqbollari bilan bog`liq amaliy takliflar berish.

---

[1] Қаранг: Галенович Ю.М. Принципы внешней и оборонной политики современного Китая. – М., 2003.
[2] Қаранг: Китай в мировой политике / Отв. ред.-сост. А.Д. Воскресенский. – М.: РОССПЭН, 2001.

**Bitiruv malakaviy ishining obyekti va predmeti.** Hozirgi bosqichda O`zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o`rtasidagi hamkorlik ishning ob’yekti hisob-lanadi.

O`zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasining iqtisodiy, siyosiy, madaniy, xavfsizlik va boshqa sohalarda ularning o`zaro manfaatli munosabatlari, shuningdek, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasidagi hamkorlik masalalari ishning predmetini tashkil qiladi.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va metodologik asoslari.** Ishning nazariy va metodologik asoslari bitiruv malakaviy ishining ob’yekti va predmeti bilan uzviy bog`liq.

Asosiy yondashuvlarimiz va xulosalarimizda biz mamlakatimiz siyosiy jarayonlar tadqiqotlari maktabining an’analariga tayandik. Bilish umumilmiy va maxsus metodlari to`plami, shu jumladan mantiqiy, qiyosiy, tarixiy, tizimli-strukturaviy metodlar, tahlil va sintez metodi ishning nazariy asosi bo`lib xizmat qildi.

Mazkur ishning metodologik asosini O`zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, xalqaro shartnomalari, O`zbekistonning va Xitoyning tashqi siyosiy konsepsiyasi, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va nutqlari, Xitoy Xalq Respiblikasi Prezidenti Si Szinpin nutqlari, O`zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi, shuningdek, taniqli siyosatshunos olimlarning O`zbekiston va Xitoy tashqi siyosati va tashqi siyosiy kursi masalalariga bag`ishlangan nazariyalari va ta’limotlari tashkil etdi.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi va hajmi.** Ushbu tadqiqot ishi kirish qismi, ikki bob va olti paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

# I BOB. XALQARO MUNOSABATLARNI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

## 1.1. Xalqaro munosabatlar tushunchasi mohiyati va nazariy jihatlari

Insoniyat rivoji xalqaro munosabatlar va ularda davlatlarni ishtiroki to`g`risidagi tushunchalar mazmun-mohiyati bilan bog`liq qarashlarning ham o`zgarishiga ta’sir qildi. Davlatlar o`z faoliyati davomida xalqaro munosabatlarning to`laqonli sub’yekti sifatida o`zaro munosabatlarga kirishadilar va bu ular faoliyatidagi eng muhim sohalardan hisoblanadi. O`tgan asrlar mobaynida dunyo sahnida yuz bergan ko`plab o`zgarishlar, qonli to`qnashuvlar va urushlar davlatlarning xalqaro munosabatlardagi faoliyat yo`nalishlarini, ularning mohiyatini qayta ko`rib chiqishlari zaruratini yuzaga keltirdi. Bu o`z navbatida, siyosatshunos olimlar tomonidan xalqaro munosabatlarda davlatlarning ishtiroki va ularning faoliyat doiralariga bag`ishlangan masalalarga oid ko`plab nazariya va  konsepsiyalarning shakllanishiga turtki bo`ldi.

Dunyoning turli hududlarida shakllangan millat va elatlar o`zligini anglab borishi jarayonida ular yashab turgan hududning rivojlanishi ular va boshqa hududlar o`rtasidagi aloqalarning rivoji bilan birga amalga oshishi lozimligini namoyon etadi. Natijada esa, millatlararo munosabatlar rivojlanib xalqaro munosabatlar insoniy aloqalarning alohida yo`nalishiga aylandi.

O`tgan asrda ikki jahon urushi va undan keyingi “sovuq urush” tugagandan so`ng xalqaro munosabatlar tizimida ham ko`plab o`zgarishlar sodir bo`ldi: yangi suveren davlatlar yuzaga keldi, xalqaro hamjamiyatning umumiy manfaatlarini o`zida ifoda etgan xalqaro tashkilotlar tashkil etila boshlandi. Bugun jahon siyosati sahnida xalqaro siyosat va xalqaro munosabatlarda murakkab va ziddiyatli jarayonlar kechmoqda. Shu munosabat bilan xalqaro munosabatlarning asosiy prinsiplarini, yo`nalishlari, xalqaro siyosiy-iqtisodiy masalalarni, hozirgi xalqaro munosabatlardagi murakkab muammolar

yechimini topishga qaratilgan turli yondashuvlarni tahlil etish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Bir qarashda xalqaro munosabatlar tushunchasi tor doiradagi guruh vakillari-prezidentlar, diplomatlar va harbiylar kabi kishilarning faoliyatini ifodalovchi tor tushunchaga o`xshaydi. Bugungi kunda aslida bunday emasligini ko`rishimiz mumkin. Xalqaro doirada telekommunikatsiya va texnologiyalarning rivojlanishi, savdolar, axborotlar va fikrlar almashinuvi jarayonlari tobora jadallashmoqda. Davlat rahbarlari xalqaro munosabatlarda asosiy rol o`ynashsa-da, amalda har bir shaxs unda ishtirok etayotganligini ko`rishimiz mumkin. Kishilar o`zlarining davlatlaridagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etmoqdalar, prezident va deputatlarni saylashmoqda, hukumat saylovlari va davlatning tashqi siyosatiga doir masalalarda istirok etmoqdalar va ularga oid fikrlar bermoqdalar. Referendumlarda fuqarolar o`z davlatlarining biror bir xalqaro tashkilotga a’zo bo`lib kirishi yoki kirmasligi masalalarida o`z fikrlarini berish bilan birga mamlakat kelajagiga aloqador masalalarda ham takliflar berib bormoqdalar. Boshqacha qilib aytganda, har kuni millionlab kishilar xalqaro munosabatlar tizimida faol ishtirok etmoqda.

Davlatlararo munosabatlar qadimda uchraymaydi, chunki dunyoning turli hududlarida davlatlar bir paytda paydo bo`lmagan. Vaqtlar o`tib, davlatlar ko`rinishlarining tarqalishi natijasida jamiyatlar o`rtasida aloqalar yetakchilik qila boshladi [1]. Xalqaro munosabatlar qadimgi davrlardan beri mavjud bo`lishiga qaramasdan, ushbu atama nisbatan yaqinda vujudga kelgan. Ushbu atamani angliyalik faylasuf J.Bentam muomalaga kiritgan. Bu atama ostida yirik milliy davlatlarning o`zaro munosabatlari ifodalangan[2].

---

[1] Ачкасов В.А., Ланцов С.А.Мировая политика и международные отношения: Учебник.-М.: Аспект Пресс,2011.-С.9

[2] К истории и методологии понятия международных отношений. // Manba: http://uchebnik-online.com/131/10.html

“Xalqaro munosabatlar nazariyasi” Birinchi Jahon urushi tugagandan so`ng paydo bo`ldi. Mazkur atama birinchi marta 1919-yilda Uels universitetida Vudro Vilson kafedrasida muomalaga qo`llangan edi[1].

Bugungi kunda xalqaro munosabatlar tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko`rishimiz mumkin. Bunda ushbu qarashlar yuzaga kelgan vaqt va hudud omili ham ahamiyat kasb etishini ta’kidlash joiz. Xalqaro munosabatlar tushunchasiga berilgan quyidagi ta’riflarni ko`rib chiqamiz.

Fransuz faylasufi va sotsiolog olimi R. Aron fikriga ko`ra, “ xalqaro munosabat-bu siyosiy birliklar o`rtasidagi munosabatlardir[2]”.

Xalqaro munosanatlar – bu ijtimoiy munosabatlarning o`ziga xos ko`rinishidir[3].

Xalqaro munosabatlar - bu xavfsizlik, barqarorlik va rivojlanishni ta’minlash maqsadida uning sub’ektlari bo`lmish davlatlar, xalqaro tashkilotlar va transmilliy korporatsiyalar, firmalar, guruhlar o`rtasidagi o`zaro hamkorlik shakli va metodlari, siyosiy, huquqiy, harbiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalar hamda bog`liqliklar tizimidir[4].

Xalqaro siyosat va munosabatlar - ikki yoki undan ortiq mamlakatlar, turli xil siyosiy va nodavlat tashkilotlar bilan bog`liq bo`lgan aloqalarni ifoda etadi. Uning faoliyati xalqlarning talab va ehtiyojlari, davlat manfaatlari xalqaro normalar va qadriyatlar bilan bog`liq bo`ladi[5].

Xalqaro munosabatlar davlatlar orasida hozirgi paytda mavjud bo‘lgan moddiy va ma’naviy qadriyatlar almashish borasidagi aniq aloqalardir[6].

Xalqaro munosabatlar tizimi bugungi kunda “xalqaro siyosat” atamasi bilan ifodalanadigan barcha tushunchalarni o`z ichiga qamrab oladi. U ijtimoiy, etnik-diniy,

---

[1] Ачкасов В.А., Ланцов С.А. Мировая политика и международные отношения: Учебник.-М.:Аспект Пресс,2011.-С.13

[2] Международные отношения. // Manba: https://ru.wikipedia.org/wiki/Международные_отношения

[3] O`sha manba.

[4] Muhammadsidiqov M.M. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari.// O`quv qo`llanma.-T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti,2013.-B.7

[5] Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik: Oliy ta’lim muassalari talabalari uchun darslik.-T.: O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti,-B.260

[6] Одилқориев Х.Т.,.Очилов Б.Э. Ҳозирги замон халқаро оммавий ҳуқуқи.Дарслик.Т.:2007.-В.12

iqtisodiy, harbiy-strategik, madaniy, geosiyosiy, ilmiy-texnologik va boshqa jihatlar bilan tavsiflanadi. Xalqaro munosabatlar tizimi siyosiy chegaralar bilan ajratilgan mustaqil davlatlar majmuidan iboratdir. Bu - uyushmagan, allaqanday bir amorf birlashma bo`lib qolmasdan, balki bundagi har bir ishtirokchi davlatni ayrim-ayrim olib qaraydigan bo`lsak, alohida o`ziga xoslik va aynan shu davlatgagina xos bo`lgan qadriyatlar va an’analar tizimini anglatish orqali ushbu davlatlar hamjamiyatining betakror me’moriy qiyofasiga ta’sirini ko`rsatishi shubhasiz, albatta o`zining ta’sirini ko`rsatadi[1].

Xalqaro munosabatlar xalqlar, davlatlar va ularning tizimlari o`rtasidagi aloqalar va o`zaro bog`liqliklarning yig`indisini tavsiflaydi. Xalqaro munosabatlar deganda, odatda jahon hamjamiyatining barcha asosiy sub’yektlari o`rtasidagi siyosiy, xo`jalik-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, valyuta-moliyaviy, ijtimoiy, diplomatik, huquqiy, harbiy, gumanitar va kommunikatsiya aloqalari hamda munosabatlarining tizimli yig`indisi tushuniladi. Jahon hamjamiyatining asosiy sub’yektlari bo`lib, eng avvalo, davlatlar va xalqaro tashkilotlar maydonga chiqadilar[2].

Xalqaro munosabatlarni ijtimoiy munosabatlarni hududiy tuzilmalar doirasidan chekkaga chiquvchi ichki ijtimoiy munosabatlarning o`zaro harakati turi sifatida ta’riflash mumkin[3].

Yuqoridagi ta’riflardan ko`rinib turibdiki, xalqaro munosabatlar-xalqaro maydonda xalqaro munosabat sub’yektlari deb e’tirof etiluvchi tomonlarning o`zaro manfaatli munosabatlarini ifoda etuvchi tushuncha hisoblanadi. Ushbu munosabatlarda xalqaro hamjamiyat tomonidan umum e’tirof etilgan xalqaro siyosat tamoyillari asosida faoliyatlar amalga oshiriladi, aloqalar o`rnatiladi.

Insoniyat tarixining bir necha mingyilligi mobaynida xalqaro munosabatlarda muammolarning yagona yechimi sifatida urushlardan foydalanilganligining guvohi

---

[1] Hasanov U.A. Xalqaro munosabatlar nazariyasiga kirish. O`quv qo`llanma . T.: 2007.-B.12

[2] Фармонов Р.Ф., Тўлаганова Н.Ў., Турдиев М.Т., Жўраев Қ.А., Муҳаммадиев У.Н. Замонавий сиёсатшунослик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.Т.:2008.-B.179

[3] Yuldasheva G.I. Xalqaro munosabatlarning metodologik aspektlari.O`quv qo`llanma.T.:2009.-B.8

bo`lamiz. Boshqa davlatlar bilan to`qnashuvlar oldin kuch ishlatish yo`li bilan hal qilinib, so`ngra murosa qilish yo`llarini izlab topishga doir harakatlar boshlanar edi. Umuman, urush tarixga xos bo`lgan fenomen, xalqaro munosabatlarda esa alohida ahamiyat kasb etuvchi omil sifatida qabul qilindi. Qadimgi rimliklar "tinchlikni xohlaysanmi-urushga tayyorgarlik ko`r" degan qoida ostida yangi urushga harbiy tayyorgarlik ko`rar edi[1].

Bu kabi qarashlar xalqaro munosabatlar tarixida o`tgan asrga qadar saqlanib qolganligini aytib o`tish joiz. Birinchi jahon urushi yakunidan so`ng xalqaro munosabatlar tizimida tub burilish yasalganligini ko`rishimiz mumkin. Ikki blok o`rtasidagi kurash natijalarini muhokama qilish maqsadida 1919 yil 18 yanvarda dunyoning 27 davlatidan delegatsiya vakillarining Fransiya poytaxti Parij shahrida yig`ilishi bejiz emas, albatta. Ushbu shahardagi muzokaralar shuningdek, AQSh poytaxti Vashington shahridagi kelishuvlar natijasida Versal-Vashington tizimining yuzaga kelishi xalqaro munosabatlar tizimida keskin o`zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bu tizimning diqqat markazida ishtirok etuvchi mamlakatlar manfaatlarini, birinchi navbatda xavfsizlik sohasidagi ehtiyojlarni muvofiqlashtirishga yo`naltirilgan Millatlar Ligasi turdi. Uni tuzish tashabbuskori AQSh Prezidenti Vudro Vilson edi. Biroq, ushbu tashkilot qurollanishni oldini olish va bir qator muammolarni bartaraf eta olmadi[2]. Vudro Vilson tomonidan ilgari surilgan "14 modda" o`zida xalqaro munosabatlar tushunchasiga nisbatan yangi qarashlarni namoyon bo`lishini unda o`z aksini topgan quyidagi bir necha moddadan ham bilib olish qiyin emas, fikrimizcha:

- Davlatlarning qurolli kuchlarini davlat xavfsizligini ta'minlasga imkon beruvchi darajagacha qisqartirish;
- Mustamlakalar bilan bog`liq barcha muammolarni va nizolarni erkin, samimiylik va xolislik ruhida hal qilish[3].

---

[1] Qirg`izboyev M. Siyosatshunoslik: Oliy ta'lim muassalari talabalari uchun darslik.-T.: Yangi asr avlodi,2013.-B.486-487
[2] O`sha manba: -B.490-491
[3] Lafasov M.F. Jahon tarixi. Darslik. T.:2015.-B.23

1945 yilda Ikkinchi Jahon urushuning yakunlaridan munosib xulosa chiqargan dunyo hamjamiyati xalqaro tashkilotlar tuzish orqali xalqaro munosabatlar tizimining yangi bosqichida o`zlarining o`zaro munosabatlarining istiqboli tomon birlasha bordilar. Birlashgan Millatlar Tashkilotining tuzilishi fikrimizning yorqin dalilidir. Biroq, xalqaro munosabatlarda ikki qutblilik, qurollanish poygasi, "sovuq urush" jarayonlari davom etaverardi. Sovuq urush davrida shakllangan xalqaro munosabatlar tizimi urush davridagi holatlardan keskin farq qilar edi. XX asrning 90 yillariga kelib "sovuq urush" siyosatiga barham berilishi natijasida xalqaro munosabatlarning rivojlanishi uchun yangicha shart-sharoitlar tug`ildi. Yer yuzida ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va boshqa muammolar keskinlashib, ularni endi faqat global miqyosda hal qilish mumkin bo`lib qoldi.

Davlat o`z-o`zicha emas, balki xalqaro munosabatlarning o`ziga o`xshash qatnashchilari hamjamiyatida mavjud bo`ladi, faoliyat yuritadi va rivojlanadi, davlatni tizimdan tashqarida tasavvur etib bo`lmaydi[1]. Ushbu fikrning to`g`riligi o`tgan asr o`rtalarida xalqaro munosabatlar aktorlari o`rtasidagi aloqalarning keng yo`nalishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratilganligida ko`rishimiz mumkin. Xalqaro maydondagi muhim muammolarni yechishga qaratilgan jarayonlarda yirik davlatlarning ishtiroki sezilarli darajada bo`lib, ular kuch markazlari deb e'trof etiladi.

Xalqaro munosabatlar nazariyasi quyidagi bir necha tizimlarni o`z ichiga oladi:

- Xalqaro munosabatlarning Vestfaliya tizimi (1648 yilgi O`ttiz yillik urush yakunidan so`ng). Bunda kuchlar muvozanati g`oyasi paydo bo`ldi;
- Xalqaro munosabatlarning Vena tizimi (1814 yilgi Napaleon urushlarining yakunlaridan so`ng). "Yevropa konserti" g`oyasi paydo bo`ldi;
- Xalqaro munosabatlarning Versal - Vashington tizimi (Birinchi Jahon urushi natijasida);
- Xalqaro munosabatlarning Yalta - Postdam tizimi (Ikkinchi Jahon urushi natijasida).

[1] Hasanov U.A. Xalqaro munosabatlar nazariyasiga kirish. O`quv qo`llanma . T.: 2007.-B.13

Dunyo bir-biriga qarshi bo`lgan ikki qutbga: Sharq (sotsialistik davlatlar bloki) va G`arb (kapitalistik dunyo) ga ajraldi. Yalta - Postdam tizimi 1991 yilda Sovet Ittifoqining qulashi natijasida yakuniga yetdi. Dunyoda bir qutbli tizim qaror topdi[1].

Xalqaro munosabatlar, asosan, davlatlar tomonidan ularning o`zaro aloqalarining hosilasi sifatida namoyon bo`lishini yuqoridagi ta’riflarda ham ko`rib chiqdik. Shundan kelib chiqqan holda, davlatning xalqaro munosabatlar borasidagi o`rni hamda rolini va umuman, yangicha shart-sharoitlardagi jahon siyosiy tizimini tadqiq etishda “siyosiy realizm” maktabining - G.Morgentau, E.Karr, R.Nibur, G.Shvarsenberger, N.Spaykman, R.Straus-Xyupe, Dj.Kennan, S.Koen kabi namoyandalari birinchilardan hisoblanadi. Mohiyatan, bu maktab vakillari siyosat maydonida markaziy o`rin tutgan yetakchi kuch sifatida davlat tushuniladigan xalqaro munosabatlar tizimining qonuniyatlari, mexanizmlari va uning o`zigagina xos bo`lgan alomatlari, shuningdek, mazkur tizimni harakatga keltiruvchi muhim vosita va qurollari hamda asosiy kuchlari bilan bog`liq murakkab muammolar tuguni muntazam suratda tadqiq etib borish ishlarini birinchilardan bo`lib boshlab berdilar. Siyosiy realizm maktabi vakillari qarashlarida quyidagilar e’tirof etiladi:

– Bunda xalqaro munosabatlarning asosiy ishtirokchilari davlatlar hisoblanadi;
– Bunda har bir davlatning xalqaro maydondagi munosabatlarga kirishishining asosiy omili - milliy manfaat tashkil etadi;
– Xalqaro munosabatlarda o`z manfaatiga ega bo`lgan har bir davlat mojaroli vaziyatdan chetda qolmaydi. Tinchlikni ta’minlashning eng muhim omili, siyosiy realizmda ta’kidlanganidek, kuchlar muvozanatining mavjudligi: bir-birining huquqini, madaniyatini hurmat qilish[2];
– Davlat milliy manfaatlarini himoya qilgani holda o`zining asosiy maqsadi-milliy xavfsizligini ta’minlashi lozim;

[1] Международные отношения. // Manba: https://ru.wikipedia.org/wiki/Международные_отношения
[2] Лебедева М.М. Теоретические школы в международных исследованиях. Либерализм и неолиберализм // Мировая политика. - М.: Аспект-Пресс, 2003. - С. 27.

– Xalqaro munosabatlar tabiatini o`zgartirib bo`lmaydi, faqat siyosiy kuchlarning konfiguratsiyasini o`zgartirish mumkin[1].

Mazkur maktab an'analarini davom ettirishga R.Aron, G.Kissindjer, R.Osgud, R.Rozekrants, Dj.D.Singer, R.Gilpin, K.Uolts, R.Koxeyn, Dj.Nay, K.Deych, A.Volfers va boshqa "neorealistlar" o`z hissalarini qo`shdilar[2]. Neorealistlar qarashlarida quyida-gilar alohida ahamiyatga ega hisoblanadi:

– Neorealistlar xalqaro munosabatlar nazariyasi va jahon siyosati nazariyasi bir ma'noni ifodalamaydi, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, xalqaro munosabatlar-davlatlararo munosabatlar, jahon siyosati esa – nodavlat aktorlarning o`zaro aloqalaridir;
– Xalqaro munosabatlar yaxlit tizim sifatida namoyon bo`ladi, ma'lum qoidalar asosida faoliyat olib boradi;
– Neorealistlar xalqaro munosabatlarni xalqaro tizim darajasiga ko`tarilishini ta'kidlaydilar;
– Neorealistlar iqtisodiy munosabatlarni siyosiy munosabatlardan ajratish va ularni farqlashga intiladilar;
– Xalqaro munosabatlarning harakatlantiruvchi kuchi-qattiq tartibda xalqaro tizim bilan chegaralangan tuzilish bilan ifodalanadi[3].

Quyidagi xususiyatlarga ko`ra xalqaro munosabatlarni tasniflash mumkin:

1. Sinf me'zonlari asosida :

- Hukmronlik va bo`ysunish munosabatlari (feodalizm va kapitalizm davrlaridagi munosabatlar);
- Hamkorlik va o`zaro yordam (sotsialistik dunyo nazariyasi munosabatlari);

---

[1] Цыганков П. А. Глава 4. Традиции, парадигмы и споры в ТМО. Политический реализм // Теория международных отношений. - М.: Гардарики, 2003. - С. 109-112.
[2] Qarang: Hasanov U.A. Xalqaro munosabatlar nazariyasiga kirish. O`quv qo`llanma . T.: 2007.-B.10.
[3] Цыганков П. А. Глава 5. Современные школы и направления в теории между народных отношений. Спор неореализма и неолиберализма. Неореализм // Теория международных отношений. - М.: Гардарики, 2003. - С. 126-132.

- O`tish davri munosabatlari (mustamlakachilikdan o`z mustaqilligini qo`lga kiritgan rivojlanayotgan mamlakatlar o`rtasidagi munosabatlar).

2. Sivilizatsiya me’zoni asosida:

- Kuchlar muvozanati asosidagi xalqaro munosabatlar;
- Manfaatlar munosabatiga asoslangan xalqaro munosabatlar.

3. Ijtimoiy hayot sohalari asosida:

- Iqtisodiy;
- Siyosiy;
- Harbiy-strategik;
- Madaniy;
- Mafkuraviy.

4. Ishtirokchilarning o`zaro aloqalari asosida:

- Hukumatlararo munosabatlar;
- Partiyalararo munosabatlar;
- Xalqaro tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar, shaxslar o`rtasidagi munosabatlar.

5. Rivojlanish va jadallik darajasiga ko`ra:

- Munosabatlarning yuqori darajasi;
- Munosabatlarning o`rta darajasi;
- Munosabatlarning quyi darajasi.

6. Geosiyosiy me’zonlar asosida:

- Global;
- Mintaqaviy;
- Submintaqaviy.

7. Keskinlik darajasiga ko`ra:

- Barqaror va beqaror munosabatlar;
- Ishonch va ishonmaslik asosidagi munosabatlar;
- Hamkorlik va mojaroli munosabatlar;

- Tinchlik va urush munosabatlari[1].

Davlatlar xalqaro munosabatlarda erkin, teng huquqli aloqalarga kirishishlari uchun ular hamma uchun birdek bo`lgan xalqaro siyosat prinsiplarini joriy etdilarki, bunda barcha mamlakatlar manfaatlari mushtarakligi o`z ifodasini topgan.

Xalqaro siyosatning asosiy prinsiplariga quyidagilar kiradi:

– kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
– davlatlarning hududiy yaxlitligini hurmat qilish;
– davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
– o`zaro foydali hamkorlik;
– chegaralarning daxlsizligi;
– tortishuvni tinch yo`l bilan hal qilish;
– insonning asosiy huquq va erkinliklarini hurmat qilish;
– teng huquqlilik va xalqlarning o`zi tanlash huquqini hurmat qilish;
– xalqlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish;
– yalpi xavfsizlik va o`zaro ishonch;
– xalqaro huquq normalariga rioya qilish[2].

Davlatlarning o`zaro bir-biriga bog`liqligi xalqaro tizimning eng yaqqol belgilaridan hisoblanadi. Avval aytib o`tilganidek, bu holat ularning o`zaro muloqotga bo`lgan ehtiyojidan hamda umumiy va, ayni paytda, o`zaro farqlanib turuvchi turli xil manfaat va maqsadlar mavjudligidan kelib chiqadi. Mazkur maqsadlarni amalga oshira borib, davlatlar bir-birlariga muqarrar ravishda o`zaro muomalaga kirishishi asnosida, ta’sir ko`rsatmay qolmaydilar. Davlatlarning o`zaro bog`liqligi va o`zaro ta’siri bunday aloqalarning ma’lum bir o`ziga xosligida, turli xildagi ittifoq va birlashmalar tashkil

---

[1] Цыганков П. А. Глава II. Международные отношения как особый род общественных отношений. Понятие и критерии международных отношений // Политическая социология международных отношений. - М.: Радикс, 1994. // Манба: <http://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Polit/cugan/02.php>

[2] Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik: Oliy ta’lim muassalari talabalari uchun darslik.-T.: O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti,-B.266-267.

qilinishida, ya’ni aynan xalqaro munosabatlar tizimining o`zi uchun xos bo`lgan shakllar va munosabatlarda yaqqol namoyon bo`ladi.

Xalqaro munosabatlar tizimidagi har bir munosabatga kirishayotgan davlat o`z manfaatlari nuqtai nazaridan faoliyat olib boradi. Davlatlar boshqa davlatlarning manfaatlari bilan kamdan-kam hollarda mos kelishi mumkin bo`lgan o`z milliy manfaatlaridan kelib chiqadilar[1]. Ma’lumki har bir davlatning tashqi siyosati milliy manfaatni himoya qiluvchi falsafaga asoslanadi. Va unga asoslanuvchi nazariya va konsepsiyalar, xalqaro hayotga doir strategiya institutsional tashkilotlar orqali, tabiiyki davlatlar tashqi siyosiy yo`lini ham belgilaydi[2]. Biroq xalqaro aloqalarga kirishayotgan aktorlar o`zaro munosabatlarni amalga oshirish davomida boshqa o`zlari bilan hamkorlikka kirishayotgan tomonlarning manfaatlariga zid keladigan qarorlar qabul qilmasliklari xalqaro maydonda yuzaga kelishi mumkin bo`lgan mojarolarning ehtimolini kamaytiradi. Zamonaviy xalqaro munosabatlar davlatlarning o`zlari yakka holda emas, balki o`zaro bog`liq qonuniyati asosida rivojlanishga erishishlari mumkinligini taqozo etmoqda. Davlatlar barqarorlikning mustahkamlanishi va qulay tashqi muhitning yaratilishidan manfaat-dordirlar. Bugungi kunda globallashuv jarayoni jadal sur’atlarda rivojlanish holatida o`zaro bog`langanlik tendensiyasi ijobiy rivojlanishning ko`p sonli misollariga qaramasdan, salbiy jihatlarga ham ega. Barcha davlatlar uchun chegaralarni mustahkamlash muammosi, o`z hududlarini narkotik moddalari kirib kelishidan, qo`poruvchi ekstremistik guruhlar kirib kelishidan, noqonuniy migratsiyadan, ommaviy qirg`in qurollarining o`ta xavfli turlarini ishlab chiqarish texnologiyalarini o`tkazishdan himoya qilish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Shu o`rinda dunyodagi hech bir davlat, u qanchalik boy va qudratli bo`lishidan qat’i nazar, milliy manfaatlar va maqsadlarni xalqaro tizim shartlariga moslashish jarayonidan xoli emas. Bu yerda bugungi zamonaviy xalqaro munosabatlarga xos bo`lgan yana bir qonuniyat yuzaga keladi, ya’ni dunyoning hech

[1] Hasanov U.A. Xalqaro munosabatlar nazariyasiga kirish. O`quv qo`llanma . T.: 2007.-B.22.
[2] Qarang: Bekmuratov I.N. Xitoy tashqi siyosati mentaliteti: yangi asr ehtiyoji.//Maqola. “Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. T.:2014.-B.165.

bir davlati o`z tashqi siyosiy muammolarini yolg`iz o`zi, mustaqil hal qilishga qodir emas[1]. XXR Raisi Si Szinpin talqini bilan aytganda: “Biz jo`shqin o`zgarishlar davrida yashayapmiz va bizning oldimizda uzluksiz yangilanishlarni va rivojlangan dunyoni ochish vazifasi turibdi[2].

Shu bilan birga, hozirgi davrda xalqaro munosabatlarning ijobiy rivojlanishiga doir tub o`zgarishlar sifatida quyidagilarni ko`rsatish mumkin:

1. Xalqaro munosabatlar mafkuralashuvidan xalos bo`lish jarayoni;
2. Qarama-qarshilikdan sherikchilik va hamkorlikka o`tish;
3. O`zaro tiyib turishning xalqaro tizimi shakllanishi;
4. Jahon siyosatining demokratlashuvi va insoniylashuvi;
5. Xalqaro munosabatlar sohasining kengayishi;
6. Global muammolarning barcha insoniyat uchun umumiy ekanligini anglash;
7. Globallashuv jarayoni va bir xillikka intilish[3].

Xulosa sifatida aytadigan bo`lsak, zamonaviy xalqaro munosabatlar o`zaro hamkorlik, munosabatga kiruvchi ikki tomon yoki tomonlarning o`zaro manfaatdorlikka ega bo`lishi, kuchlar muvozanatini ta’minlanishi, turli mojarolarning paydo bo`lishini oldini olish yoki ularni tinch yo`l bilan hal etish, xalqaro munosabatlar tizimini yaratish va mustahkamlash, global darajadagi muammolarni hal etishda jahon hamjamiyati davlatlarining birlashuviga erishishning ahamiyati tobora ortib borayotganligini ko`rsatib bermoqda. O`zbekiston Respublikasi ham xalqaro munosabatlarga kirishishda o`z tashqi siyosatida xalqaro huquqning umum e’tirof etgan tamoyillarini ifoda etgan holda faoliyat yuritadi. Jahon mamlakatlarining bir butun tizim sifatida umumiy faoliyatini tashkil etish kelgusida insoniyat oldida yuzaga kelishi mumkin bo`lgan muammolar yechimining eng samarali usuli, fikrimizcha. Yurtboshimiz so`zlari bilan aytganda, ushbu munosabatlardan kutilayotgan pirovard maqsad quyidagicha

---

[1]Hasanov U.A. Xalqaro munosabatlar nazariyasiga kirish.//O`quv qo`llanma . T.: 2007.-B.25.
[2] 习近平谈治国理政: 俄文/ 习近平著; 俄文翻泽组泽.-北竟 : 外文出版社,2014.第 368 页
[3] Qirg`izboyev M. Siyosatshunoslik: Oliy ta’lim muassalari talabalari uchun darslik.-T.: Yangi asr avlodi,2013.-B.503-504.

ifodalanadi: “Biz tashqi aloqalarni xalqaro munosabatlarning turli yo`nalishlari bo`yicha muvaffaqiyatli rivojlantirishni xavfsizlik va barqarorlikning kafolati deb bilamiz[1]”.

## 1.2. O`zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konseptual asoslari

O`zbekiston Respublikasi 1991 yil 31 avgustda o`zining mustaqilligini e’lon qilgach, mustaqil tashqi siyosat amalga oshira boshladi. O`zbekiston Respublikasi o`zining tashqi siyosatini amalga oshirishda bosh qomus-O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2010 yil 12 dekabrda qabul qilingan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish” konsepsiyasi, 2012 yil 10 sentabrda qabul qilingan “O`zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi” va boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlar asos bo`lib xizmat qiladi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IV bobi tashqi siyosat masalalariga bag`ishlanib, uning 17-moddasining birinchi bandida mamlakatning tashqi siyosati xususida to`xtalib, quyidagicha so`z yuritiladi: “O`zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to`la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo`l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi”[2]. Darhaqiqat, mustaqillikning ilk kunlaridanoq O`zbekiston Respublikasi Prezident Islom Karimov rahbarligi ostida o`zining faol tashqi siyosatini amalga oshira boshladi. Yurtboshimiz o‘zining “O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li” nomli asarida: “O`zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan, ko`p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish - davlatimiz mustaqilligini

---

[1] Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. (1997 й.) Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Асар. тўп. 6-жилд.- Б.239-240.
[2] O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.:2015.-B.8.

mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g`oyat muhim vositasidir”[1], - deb alohida uqtirganlar.

Ilgari umuman mustaqil tashqi siyosatni amalga oshirishiga yo`l qo`yilmagan, hattoki, Tashqi ishlar vazirligi faqat nomigagina faoliyat yuritgan davlatimiz qisqa fursat ichida mamlakatning milliy manfaatlarini himoya qilishga qodir tashqi siyosiy tuzulmalarni tashkil etdi. Nisbatan qisqa vaqt ichida O`zbekiston davlati jahon siyosati va xalqaro munosabatlarning faol ishtirokchisiga aylandi. Davlatning tashqi siyosatga doir konsepsiya Prezident I.A. Karimovning asarlarida mujassamlashdi. Mazkur konsepsiya uchun O`zbekistonning jahon hamjamiyati va davlatlararo xavfsizlik tizimida munosib o`rinni egallashi, mamlakat milliy xavfsizligini ta’minlash ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda davlatlararo tashqi siyosatni rivojlantirish, tashqi siyosatni mafkuradan xalos etish, davlatni qo`shilmaslik harakatiga a’zo bo`lishiga erishish, barcha xorijiy davlatlar bilan har tomonlama o`zaro hamkorlik qilish, milliy manfaatlarni ifodalash va himoya qilish kabi yo`nalishlar asos qilib olindi[2].

Mustaqillikka erishgach, O`zbekiston o`z tashqi siyosatini mustaqil ravishda yuritish imkoniyatini qo`lga kiritdi. Uning negiziga quyidagi ustuvor tamoyillar asos qilib olindi: davlat milliy manfaatlarining, xalqaro huquq me’yorlarining ustuvorligi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, barcha nizolarni tinch yo`l bilan hal etish, o`zining milliy-davlat manfaatlari ustuvorligida o`zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish, biror-bir davlatning ta’sir doirasiga kirmaslik, to`la ishonch, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish asosida ikki tomonlama, shuningdek, ko`p tomonlama tashqi aloqalarni o`rnatish va ularni rivojlantirish[3].

O`zbekistonning 20 yillik mustaqil taraqqiyoti davtida har tomonlama puxta o`ylangan hamda milliy manfaatlarga asoslangan , dunyoda keng e’tirof etilgan va jahon

---

[1] Каримов И.А.Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура.Т.1-Т.: «Ўзбекистон», 1996.-В.50.

[2] Qarang: Qirg`izboyev M. Siyosatshunoslik: Oliy ta’lim muassalari talabalari uchun darslik.-T.: Yangi asr avlodi,2013.-B.504-505.

[3] O`zbekiston Respublikasining xalqaro aloqalari – O`zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy veb-sayti.//Manba: http://mfa.uz/uzb/xalqaro_munosabatlar/

hamjamiyatda mamlakatning obro`-e'tiborini mustahkamkamlagan tashqi siyosiy yo`li shakllandi. O`zbekistonning tashqi siyosati o`tgan yigirma yil davomida erishilgan amaliy tajribaga tayanib, faol, dadil va mutanosib tashqi siyosiy yo`lni amalga oshirish talab etilayotgan XXI asrning tinimsiz o`zgarib borayotgan xalqaro siyosiy vaziyatni hisobga olgan holda qurilmoqda[1].

O`zbekiston Respublikasining "Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi"da ham mamlakatimizning tashqi siyosatining yo`nalishlari asosli tarzda yoritib berilgan. Jumladan, ushbu konsepsiyada keltirilgan quyidagi jumlalar uning qabul qilinishidan va mamlakat tashqi siyosati uchun undan ko`zlangan maqsadni o`zida ifoda etadi: "O`zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi davlat tashqi siyosatining fundamental prinsiplari va strategik ustuvor yo`nalishlarini, xalqaro maydondagi maqsad va vazifalarini, o`rta va uzoq istiqbolda O`zbekiston milliy manfaatlarini ilgari surish mexanizmlarini belgilab beradigan qarashlarning yaxlit tizimidir"[2].

Bugungi kunda O`zbekiston dunyoning 120 dan ortiq davlati bilan diplomatic aloqa o`rnatgan. Toshkentda 42 ta elchixona, 1 ta bosh konsullik idorasi, 9 ta faxriy konsul, 10 ta xalqaro tashkilot vakolatxonalari, 5 ta xalqaro moliyaviy tashkilot vakolatxonalari, 3 ta savdo vakolatxonasi faoliyat yuritmoqda. O`z navbatida, O`zbekiston Respublikasining 46 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari chet davlatlarda va xalqaro tashkilotlar huzurida, shu jumladan, Nyu-York shahrida BMT huzuridagi doimiy vakolatxonasi hamda Jeneva shahrida BMTning Yevropa bo`limi va boshqa xalqaro tashkilotlari huzurida faoliyat olib bormoqda[3].

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq hukumatimiz olib borgan tashqi siyosat jahon hamjaniyati tomonidan yuksak baholandi. Davlat mustaqilligi va suverenitetining,

---

[1] Ўзбекистон Республикасининг Ташқи сиёсий фаолияти Консепсияси. Олий Мажлис палаталарининг Ахборотномаси. 9/1 (1437)-сон.Т.:2012.- Б.7.

[2] Ўзбекистон Республикасининг Ташқи сиёсий фаолияти Консепсияси. Олий Мажлис палаталарининг Ахборотномаси. 9/1 (1437)-сон.Т.:2012.- Б.6.

[3] Мустапова Ҳ.И., Сулаймонов М.М. Ўзбекистон Республикасининг ташқи сиёсий фаолияти консепсияси ва ундаги асосий тамойиллар.//Мақола. Жаҳон сиёсатининг долзарб муаммолари: анъанавий илмий мақолалар тўплами: N 2.2013 й./ Масъул муҳаррирлар: Ш.А. Ёвқочев, Б.Э. Очилов.-Т.: Тош ДШИ,2013.-Б.25.

uning hududiy yaxlitligining daxlsizligi, milliy manfaatlarning ustuvorligi, pragmatizm g`oyalariga asoslangan faol va izchil tashqi siyosat yuritish, umuminsoniy kadriyatlarga tayanish, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, o`zaro hurmat va teng huquqlilik, manfaatlar mushtarakligi, davlatlararo munosabatlarda mafkuradan xolilik, ichki ishlarga aralashmaslik kabi tamoyillar mamlakatimizning shu kungacha olib borgan tashqi siyosati va diplomatiyasining asosiy konseptual ildizini tashkil etib kelgan[1].

Tashqi siyosat davlatlar bilan diplomatik munosabatlar o`rnatish, xalqaro tashkilotlar qoshida vakolatxonlalar ochish yoki unga a’zo bo`lish, turli darajalarda o`zaro aloqalar o`rnatish shakllarida amalga oshirilishi barchamizga ma’lum. O`zbekiston Respublikasi ikki va ko`p tomonlama munosabatlarni o`rnatish va bunda tomonlarning manfaatdorligini ta’minlanishi, xalqaro tashkilotlarga teng huquqlilik prinsipi asosidagi a’zolik munosabatlarini amalga oshirib kelmoqda. Respublikaning tashqi siyosati teng huquqlilik va o`zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalari asosida quriladi[2].

Markaziy Osiyo mamlakatlari hududidagi geosiyosiy va geoiqtisodiy omillarning barchasi ayniqsa, dunyoda siyosiy-iqtisodiy va xalqaro munosabatlardagi yangi tartib tez sur’atlar bilan shakllanib borayotgan bir sharoitda, O`zbekistonning noyob geografik o`rni jahon hamjamiyatida juda katta geosiyosiy va geostrategik qiziqish uyg`otmoqda[3]. Yurtboshimiz tomonidan aytilgan quyidagi so`zlar yuqoridagi fikrlarning mantiqli davomidir: “...Mustaqillikka erishga-nimizdan buyon o`tgan tarixan qisqa davr ichida O`zbekiston dunyo hamjamiyatida o`zining munosib o`rnini egalladi. O`zbekistonning jahondagi obro`-e’tibori yuksalib borayotgani, eng avvalo:

---

[1] Йигиталиев Ш.М. Ўзбекистон Республикасининг ташқи сиёсий фаолияти консепцияси: миллий манфаатлар ва азалий қадриятлар уйғунлиги. Manba: http://telegraf.uz/uz/nuqtai-nazar/ozbekiston-respublikasining-tashqi-siyosiy-faoliyati-koncepciyasi-milliy-manfaatlar-va-azaliy-qadriy

[2] Каримов И.А. Ўзбекистон: ўз истиқлол ва тараққиёт йўли *(1992 й.)* Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Асар.тўп. 1-жилд. – Б.51.

[3] Бжезинский З. Великая шахматная доска. Господство Америки и его геостратегические императивы. – М.: Международные отношения, 1999. – С.256.

- yurtimizda demokratiya va bozor iqtisodiyoti islohotlarini amalga oshirish natijasida qo`lga kiritilayotgan ulkan ijobiy o`zgarishlarda, ularning xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishida mujassam bo`lmoqda;
- bu davlatimizning jahon ahliga yaxshi ma'lum bo`lgan, mintaqamizda barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarining amaliy samarasida o`z ifodasini topmoqda;
- va nihoyat, bu - mamlakatimizning xalqaro siyosat maydonida olib borayotgan har tomonlama puxta ishlangan, chuqur o`ylangan tashqi siyosatining natijasi sifatida namoyon bo`lmoqda"[1].

Bugungi kunda O`zbekiston jahon hamjamiyatiga yanada kengroq integratsiyalashuv siyosatini olib bormoqda, ko`plab davlatlar bilan iqtisodiyot, fan, ta'lim va axborot almashuvi borasida yaqindan o`zaro manfaatli hamkorlik qilayapti. Jahonda O`zbekistonning siyosiy barqaror, tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan davlat sifatidagi obro`si kundan kunga ortmoqda[2].

Prezident I.A. Karimov tomonidan tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga doir quyidagi asosiy tamoyillar ishlab chiqildi:

- Birinchidan, o`zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarning ustunligi;
- Ikkinchidan, teng huquqlilik va o`zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- Uchinchidan, mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- To`rtinchidan, xalqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustuvorligi;

---

[1] Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. – Т.: Ўзбекистон,2005–Б. 194.
[2] Азизхўжаев А.А. Мустақиллик: курашлар, изтироблар, қувончлар. - Т.: «Шарқ», 2001. – Б. 45.

- Beshinchidan, tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish[1].

U yoki bu yo`nalishdagi tashqi siyosatni tanlashga ta’sir ko`rsatadigan ko`pdan-ko`p omillar mavjud. Ular orasida ikkita eng asosiysini alohida eslatib o`tish lozim. Birinchisi, O`zbekistonning xalqaro tashkilotlarga a’zo bo`lishida hamma uchun bir xil bo`lgan talab mavjud bo`lsa, ikkinchisi, tashqi siyosatda iqtisodiy manfaatlarning siyosiy manfaatlardan ustunligidir[2].

O`zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligining tub manfaatlaridan kelib chiqqan holda, uning tashqi siyosat sohasidagi sa’y-harakatlarining asosiy maqsadi-davlat mustaqilligi va suverinitetini mustahkamlashdan, mamlakatning xalqaro munosabatlarning to`laqonli subyekti sifatidagi o`rni va rolini yanada kuchaytirishdan, rivojlangan demokratik davlatlar safidan joy olishidan, O`zbekiston tevaragida xavfsizlik, barqarorlik va yaxshi qo`shnichilik makonini yaratishdan iboratdir. Bu maqsadga erishish uchun milliy manfaatlarni qat’iy himoya qilishga hamda bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik, teng huquqlilik va o`zaro manfaatdorlik prinsiplari asosida qo`shni davlatlar bilan amaliy va yaxshi qo`shnichilik munosabatlarini tarkib toptirishga qaratilgan faol hamda izchil tashqi siyosat yuritish talab etiladi[3].

Izchil iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish, diplomatik munosabatlarni mustahkamlash, keng integratsion jarayonlarda faol ishtirok etish-pirovardida inson manfaatlari, uning huquq va erkinliklarining ta’minlanishi, ijtimoiy ahvolini yaxshilashga qaratilgan maqsadlarni ko`zda tutadi. Ana shu maqsadlarni ro`yobga chiqarish jarayonida jahon hamjamiyati bilan aloqalarni yo`lga qo‘yish uchun tashqi siyosiy faoliyatning milliy mexanizmlari tashkil qilindi. 1944 yilda tashkil etilgan respublika Tashqi Ishlar Vazirligi faoliyati tubdan isloh qilindi. 1992 yilda Tashqi

---

[1] Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.Т.: Ўзбекистон,1997.-Б.296-297.

[2] Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik: Oliy ta’lim muassalari talabalari uchun darslik.-T.: O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti,-B.282.

[3] Ўзбекистон Республикасининг Ташқи сиёсий фаолияти Консепсияси. Олий Мажлис палаталарининг Ахборотномаси. 9/1 (1437)-сон.Т.:2012.- Б.9-10.

iqtisodiy aloqalar vazirligi, 1991 yilda Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil topdi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida diplomatiya, xalqaro huquq va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida malakali kadrlar tayyorlashning davlat tizimi yaratildi.

Hozirgi bosqichda O`zbekistonning tashqi siyosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalarda xalqaro hamkorlikni izchillik bilan rivojlantirish.
2. Mamlakatda o`tkazilayotgan demokratik islohotlarni hamda jamiyatni va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning jadal jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun mumkin qadar tashqi siyosiy shart-sharoitlarni shakllantirish.
3. Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, mintaqani xavfsizlik va barqaror taraqqiyot zonasiga aylantirish.
4. Jahonning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik qilishning mutanosib, ko`p qirrali tizimini shakllantirish, mintaqada geosiyosiy muvozanatni saqlab turish. Ayrim sheriklar yoki mamlakatlar guruhiga bo`lgan tobelikni susaytirish, tashqi kuchlarning geosiyosiy, iqtisodiy yoki o`zgacha intilishlardan kelib chiqayotgan tashqi bosimlar oldidagi zaiflikni bartaraf etish maqsadida O`zbekistonning savdo, iqtisodiy, texnologik, transport va boshqa aloqalarini keng diversifikatsiya qilish.
5. Mavjud yoki yuzaga kelayotgan muammolarni o`z vaqtida hal etish, Markaziy Osiyo mintaqasidagi nizoli vaziyatlar va keskinlik kuchayishining oldini olish uchun siyosiy diplomatik hamda huquqiy mexanizmlardan foydalanish.
6. O`zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlarining mudofaa qobiliyatini oshirish, uni zamonaviy qurol-yarog`lar va texnika bilan ta'minlash, qo`shinlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, shuningdek harbiy qurilishning ilg`or tajribasini o`rganish, harbiy kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish maqsadida xalqaro tashkilotlar

bilan, rivojlangan xorijiy davlatlarning armiyasi bilan harbiy hamda harbiy-texnikaviy hamkorlikning chuqurlashuviga ko`maklashish.

7. Mintaqaviy va xalqaro siyosat, chunonchi Afg`onistonda tinchlik va barqarorlikka erishishga ko`maklashish, Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona yaratish, transchegaraviy daryolarning suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish singari eng muhim yo`nalishlar bo`yicha O`zbekistonning xalqaro tashabbuslarini ilgari surish.

8. O`zbekistonning siyosiy va savdo-iqtisodiy sohadagi ishonchli, mas'uliyatli sherik sifatidagi xalqaro nufuzini mustahkamlash, davlat tashqi va ichki siyosatining muhim jihatlarini, o`tkazilayotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning natijalarini aks ettiruvchi xolis va haqqoniy axborotlarni jahon hamjamiyati e'tiboriga yetkazish. Mamlakatning xorij uchun investitsion, sayyohlik, madaniy-tarixiy jozibadorligini kuchaytirish.

9. Milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to`g`ridan-to`g`ri chet el investitsiyalari va ilg`or texnologiyalarini jalb etish jarayonlarini kuchaytirish uchun ikki tomonlama va ko`p tomonlama hamkorlik mexanizmlaridan foydalanish.

10. Mintaqaning geografik jihatdan yopiqlik holatini bartaraf etish uchun istiqbolli loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, dunyoning yirik bozorlariga kafolatli chiqishni ta'minlaydigan transport-kommunikatsiya yo`laklarining ko`p muqobilli tizimini shakllantirish.

11. Xorijdagi O`zbekiston Repsublikasi fuqarolar va yuridik shaxslarining huquq va manfaatlari har tomonlama himoya qilinishini ta'minlash[1].

O`zbekiston o`zining tashqi siyosatini milliy-madaniy merosiga asoslangan va jahon madaniy taraqqiyotining ilg`or yutuqlari bilan uyg`unlashgan holda amalga oshirmoqda. O`zbekistonning jahon hamjamiyatida qaytadan etirof etilishida ma'naviy merosimiz beqiyos o`rin tutadi.

---

[1] Ўзбекистон Республикасининг Ташқи сиёсий фаолияти Консепсияси. Олий Мажлис палаталарининг Ахборотномаси. 9/1 (1437)-сон.Т.:2012.- Б.11-12.

Xulosa qilib aytganda, O`zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining eng ustuvor yo`nalishi – qo`shni davlatlar, avvalo, mintaqadagi davlatlar bilan aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash va har tomonlama hamkorlik qilishdir. Mintaqaviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish – Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotning garovidir. Qondosh-qardosh mamlakatlar bilan hamkorlikni yuqori davlat darajasida mustahkamlash respublikaning haqiqatan ham teng sherikchilik va o`zaro hurmat prinsiplari asosida jahon xo`jalik aloqalari tizimiga kirishiga imkon beradi. Birinchi navbatda, Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi mamlakatlar bilan tashqi aloqalarni o`rnatishga intilishimiz xuddi shu bilan belgilanadi[1]. Xususan, "uzoq-yaqin qo`shnilarimiz bilan do`stlik va hamkorlik asosida yashash, dunyo hamjamiyatida o`zimizga munosib obro` va o`rin egallash uchun doim intilish va kurashish demakdir"[2].

## 1.3. Xitoy Xalq Respublikasi tashqi siyosatining mohiyati

Xitoy Xalq Respublikasi 1949 yil 1 oktyabr kuni o`zining tashkil topgan-ligini e'lon qildi. Shu davrdan boshlab o'zining tashqi siyosati amalga oshira boshladi. XXR tashkil etilgandan keyin Xitoy diplomatiyasining asosiy maqsadi mustaqillikni, mamlakat suvereniteti va hududiy yaxlitligini ta'minlash, butun dunyoda tinchlikni himoya qilish, davlat qurilishining xalqaro umume'tirof etilgan sharoitini yaratishdan iborat bo`ldi[3]. Xitoy Xalq siyosiy konsultativ majlisining davlat qurilishining dastlabki bosqichida vaqtinchalik konstitutsiya vazifasini bajargan umumiy dasturida mamlakatning tashqi siyosati haqida quyidagicha so`z yuritilgan: "Xitoy tashqi siyosatining asosiy tamoyillari XXR mistaqilligini, erkinligini va hududiy yaxlitligini ta'minlash, butun dunyoda uzoq muddatli tinchlikni himoya qilish, dunyo xalqlari

---

[1] Муродов Ҳ., Муҳаммадиев Н., Жамолов . Ўзбекистон жаҳон ҳамжамияти сафида. -Т.: Ғ.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – Б. 32.
[2] Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосоларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. -Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б. 17.
[3] Ихуан Ч. Дипломатия Китая. Межконтинентальное издательство Китая.2005.-С.5.

o`rtasidagi do`stona aloqalarni qo`llab-quvvatlash, imperialistik agressiv va urush siyosatiga qarshi kurashishdan iborat”[1].

Xitoy tashqi siyosatida 1950 yillarda “ikki lager” nazariyasi mavjud edi. AQSh boshchiligidagi kapitalistik lager, Sobiq Sovet Ittifoqi va XXR boshchi-ligidagi sotsialistik lager va ular o`rtasida oraliq makonni egallagan Osiyo, Afrika hamda Lotin Amerikasining boshqa davlatlari “uchinchi dunyo”ni tashkil etdi.[2] 1960 yillarda “ikki lager” nazariyasi “uch dunyo” nazariyasiga almashtirildi:

1. AQSh boshchiligidagi imperializm dunyosi;
2. Sobiq Sovet Ittifoqi boshchiligidagi sotsial-imperializm dunyosi;
3. XXR boshchiligidagi rivojlanayotgan davlatlar.

1980 yillarda “uch dunyo” nazariyasi o`rnini “Sharq-G`arb”, “Shimol-Janub” nazariyalari egalladi. Ushbu nazariya Chjao Szyanning 1983 yil iyunda o‘tkazilgan Butunxitoy Xalq vakillari kengashi kongressida e’lon qilindi.[3]

1980 yillarda Xitoyda xalqaro munosabatlar va jahon siyosatini tadqiq qiluvchi bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlar tashkil etildi. 1982 yil XXR Davlat Kengashi huzurida xalqaro muommolarni o`rganish markazi tashkil etilganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Xitoy erkin, mustaqil va tinch tashqi siyosat olib boradi. Uning vazifasi -tinchlikni asrash va umumiy taraqqiyotga yordam ko`rsatishdan iborat. Xitoy Xalq Respublikasi tashqi siyosiy strategiyasining asosiy mazmun-mohiyati quyidagi-lardan iborat[4]:

– Umumiy rivojlanishga muvofiq bo`lish, insoniyatning umumiy manfaatlarini himoya qilish, Xitoyning xalqaro hamjamiyat bilan ko`p qutbli dunyo tartibotiga ko`maklashish, turli kuchlarning birgalikdagi garmonik mavjudligini himoya qilish va xalqaro hamjamiyat barqarorligini saqlash;
– umumiy ravnaq uchun yo`naltirilgan iqtisodiy globallashuvni rag`batlantirish;

---

[1] 中国外交/周溢潢著;赵秀琴泽.-北京:五洲传播出版社,2005 第 6 页
[2] Хуан Сян .Мир вдоль и поперек.-Пекин.,1984.-С.176
[3] Доклад Чжоо Цзяна//Жэнминь Жибао.24.06.1983
[4] «Китай-2005».-Пекин.:Синьцин,2005.-С.81-83

– odil va oqilona yangi siyosiy va iqtisodiy tartibotni shakllantirish, jahonning barcha mamlakatlari xalqaro siyosatda bir-birini hurmat qilishi, o`zgaga o`z irodasini majburan singdirmasligi lozim;

– iqtisodiyotda o`zaro rag`batlantirish va umumiy taraqqiyot amalga oshirilishi kerak va
boy va qashshoq mamlakatlar o`rtasidagi tafovut tobora oshmasligi lozim;

– madaniy sohada bir-birini hisobga olish, birgalikda ravnaq topish va boshqa millatlar madaniyati hurmat qilish lozim;

– xavfsizlik sohasida bir-biriga ishonish, tenglik va hamkorlik, nizolarni muloqot va hamkorlik orqali hal etish, kuch ishlatmaslik va kuch ishlatish yo`li bilan tahdid qilmaslik lozim;

– dunyoning rang-barangligini himoya qilish, xalqaro munosabatlarda demokratlashtirishni yoqlash va taraqqiyot modellari rang-barangligi uchun harakat qilish;

– madaniyatlar xilma-xilligini o‘zaro hurmat qilish;

– turli mamlakatlar o`z ishini o`zi hal qilishi kerak, tinchlik masalalari teng huquqlilik asosida muhokama qilinishi kerak;

– terrorizmning barcha ko`rinishlariga qarshi chiqish va unga qarshi kurashish. Bu boradagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlash lozim, terrorizmga zarba berish, butun kuch bilan terrorizm ildizini quritish;

– rivojlangan davlatlar bilan aloqalarni yaxshilash va rivojlantirishni davom ettirish, turli
mamlakatlar xalqlari tub manfaatlariga tirgak bo`lish, tinch-totuv yashashning besh prinsipi asosida umumiy manfaatlar sohasini kengaytirish;

– yaxshi qo`shnichilik va do`stlikni mustahkamlash, qo`shni mamlakatlar bilan sherikchilik va yaxshi qo`shnichilik munosabatlarida bo`lish, mintaqaviy ham-korlikni mustahkamlash, chegaradosh mamlakatlar bilan hamkorlik va o`zaro almashinuvni yangi bosqichga ko`tarish;

– uchinchi dunyo mamlakatlari bilan mustahkam birlik va hamkorlikni mustahkamlash,

o`zaro bir-birini angash va tushunishga ko`maklashish, o`zaro yordam va qo`llab-quvvatlashni kuchaytirish, hamkorlik sohalarini kengaytirib, uning samaradorligini oshirish;

– ko`p tomonlama tashqi siyosiy faoliyatda faol ishtirok etish, BMT va boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda Xitoy rolini oshirish;

– rivojlanayotgan mamlakatlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ularni qo`llab-quvvatlash.

Tarixdan ma’lumki, Xitoy odatda birinchi bo`lib hujum qilmagan. Mabodo, qachonlardir birinchi bo`lib hujum qilganida ham, asosan o`zlarini mudofaa qilish nuqtai-nazaridan yondashilgan[1].

Ushbu davlat tashqi siyosatida tinch-totuv yashashning besh prinsipi muhim ahamiyatga ega. Tinch-totuv yashashning mashhur besh prinsipi Xitoy va Hindiston o`rtasidagi muzokaralardan boshlandi. 1953 yil XXR Davlat Kengashi Raisi Chjou Enlay Hindiston delegatsiyasini qabul qilish chog`ida ushbu prinsiplarni taklif qildi. 1954 yil iyunda Chjou Enlayning Hindiston va Birmaga rasmiy tashrifida mashhur besh prinsip xalqaro munosabatlarning normalari hisoblanishi ta’kidlandi[2]. Keyinchalik bu Xitoy Xalq Respublikasining 1982 yil 4 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasining muqaddimasida ham o`z aksini topib, unda : “Xitoyning kelajagi dunyoning kelajagi bilan uzviy bo`gliq. Xitoy erkin va mustaqil tashqi siyosatni amalga oshiradi va o`zaro suverenitet va hududiy yaxlitlikni hurmat qilish, o`zaro hujum qilmaslik, bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik, tenglik va o`zaro manfaatdorlik, tinchlikni ta’minlash,

[1] Bekmuratov I.N. Xitoyning "O`rta yo`l"-tinch yuksalish falsafasi.//Maqola. “Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa,tarix, iqtisod va siyosat” mavzuidagi XII ilmiy-amaliy materiallari to`plami. Toshkent, 28-noyabr 2015-yil.-T.: TDShI,2015.-B.231.

[2] Ихуан Ч. Дипломатия Китая. Межконтинентальное издательство Китая.2005. –С.80-88

boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalarni rivojlantirish, iqtisodiy va madaniy hamkorlik kabi besh tamoyilga asoslanadi[1]",-deb ta'kidlab o`tiladi.

Xitoy tashqi siyosatining asosiy maqsadi - xalqaro hamjamiyatda o`z o`rniga ega bo`lgan buyuk davlat statusini qayta tiklash va saqlab qolishdir. Xitoyning bugungi kundagi tashqi siyosiy faolligini uch yo`nalishga bo`lish mumkin:

1. Global darajada o`zining dunyodagi o`rni: Xitoy-AQSh, Xitoy-G`arb munosabatlari, Jahon Savdo tashkiloti va Xitoyning Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi siyosati;
2. Xitoyning Osiyodagi siyosati: Xitoy-Hindiston, Xitoy-Pokiston munosa-batlari; Janubi Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo; O`rta va Yaqin Sharq.
3. Xitoy va Yevrosiyo; Xitoy va Rossiya munosabatlari; Xitoyning Markaziy Osiyodagi strategiyasi.

Xitoy Xalq Respublikasining tashqi siyosatini belgilashda uning raislari o`rninig yuqori bo`lganligini ko`rishimiz mumkin. Masalan: Den Syaopin XXR tashqi siyosati prinsiplari: hech qanday ittifoqqa qo`shilmaslik va izolyatsion siyosat etib belgilanadi.[2] Shuningdek, Den Saopin davrida Xitoy atrofida tashqi dunyo bilan yaxshi aloqa sharoiti yaratilgan bo`lib, davlat chegarasi bo`ylab, unga qarshi turuvchi kuch yo`q edi. Mavjud xalqaro vaziyatdan foydalanib, Den Syaopin o`zining tashqi siyosiy qarashlarini shakllantirdi: "bayroqni baland ko`tarmaslik, to`g`ridan-to`g`ri harakat qilmaslik, dushman orttirmaslik, qarshi turmaslik, o`z xatti-harakatlari bilan ahvolini yaxshilash". Mazkur jumla aniq qilib Xitoy tashqi siyosiy idora rahbarlariga o`qitildi.[3] "Bayroqni baland ko`tarmaslik" - xalqaro kommunizm ruhidagi inqilobiy chiqishlardan voz kechishni bildiradi; "to`g`ridan-to`g`ri harakat qilmaslik" - uchinchi dunyo mamlakatlari orasida liderlikka da'vo qilish harakatidan va kollektiv strukturalarga boshchilik

---

[1] Constitution of the people's Republic of China. Preamble. December 4, 1982

[2] Дэн Сяопин. Стенограммы выступлений // Избранные сочинения. Т. 3. – Жэньминь чубаньшэ, 1993. С. 321, 359-360.

[3] Цюй Син. О китайской внешней политике после коренных изменений в Восточной Европе и распада СССР (Шилунь Дунъоу цзюбянь хэ Сулянь цзети хоудэ Чжунго дуйвай чжэнцэ) // Бюллетень ИМО КНР. – 1994. № 4. С. 16–22.

qilishdan voz kechish; “dushman orttirmaslik, qarshi turmaslik” - boshqa davlat harbiy harakatlarini o`ziga qarshi qilib qo`yishdan voz kechish; “o`z xatti-harakatlari bilan ahvolini yaxshilash” - o`z ichki islohotlari bilan hayot darajasini yuqori cho`qqiga olib chiqishdir. Undan keyingi Xitoy Xalq Respublikasining raislari o`ziga xos turlicha tashqi siyosatni va diplomatik aloqalarni amalga oshirganliklarini ko`rishimiz mumkin: Den Syaopin davrida tashqi siyosat, asosan, izolyatsionistik bo`lgan bo`lsa, 1990 yillarning o`rtalaridan Szen Szyamin davrida izolyatsionizm siyosatidan kollektivizm siyosatga o`tildi. Xu Szintao tashqi siyosati asosiy yo`nalishini qisqacha “Xitoyni yuksaltirish” - deb nomlasak bo`ladi. Xitoy tashqi siyosatining maqsadi o`zini yuksaltirishda xalqaro munosabatlarning bir qutbi bo`lish va ko`p qutbli xalqaro tartibotni o`rnatishdir. Xitoy Xalq Respublikasi rahbari Si Szinpin ta’kidlaganidek, “Yangi tarixiy davrda Xitoy orzusi buyuk davlat, millatni tiklash va xalq baxtini aks ettiradi… Xitoy orzusini amalga oshirish uchun esa tinch taraqqiyot yo`lini tutish zarur. Biz sobitqadamlik bilan tinch taraqqiyot yo`lidan boramiz…”[1]

Den Syaopin nuqtai nazaridan Xitoy tashqi siyosatining talqin qilinishi XXR tashqi siyosatida barqarorlikni saqlab qolish va o`z siyosatini o`tkazishning yagona maqbul yo`li bo`lib, XXRning o`sha davrdagi tashqi siyosat uning istiqbol yo`nalishlarini ham belgilab bergan edi.[2] Bular quyidagilardan iborat:

- Davlat mustaqilligini himoyalash yo`lida har qanday tajovuzkorlikka barham berish;
- Mavjud xalqaro mojarolarni tinchlik yo`li bilan hal etish, shu yo`lda kuch nuqtai nazaridan hukmronlikka asoslangan siyosatning turli ko`rinishlariga qat’iy qarshi kurash;
- Tinch yashashlikning besh tamoyili asosida siyosiy tuzumi o`zgacha bo`lgan xalqlar

[1] Qarang: Idirov U.Y. Zamonaviy Xitoy tashqi siyosatidagi yetakchi tendensiyalar.//Maqola. “Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa,tarix, iqtisod va siyosat” mavzuidagi XII ilmiy-amaliy materiallari to`plami. Toshkent, 28-noyabr 2015-yil.-T.: TDShI,2015.-B.244

[2] Шазаманов Ш.И.Ислоҳотлар даврида Хитой Халқ Республикаси // Монография. Т.: Тошкент давлат шаршунослик институти,2014.- Б.90.

bilan do`stona hamkorlik o`rnatish va bunday hamkorlikni qo`llab-quvvatlash, uni rivojlantirish yo`lida qo`shni va rivojlanayotgan davlatlar bilan ham faol siyosat o`tkazish;

- Xalqaro miqyosda ochiq siyosat olib borish[1].

Xitoy tashqi dunyo bilan keng aloqaga kirib, borayotgan bo`lsa-da bunday aloqalar uning na ichki va na tashqi siyosatiga zarracha o`z ta'sirini o`tkazayotgani yo`q[2]. Xitoy tomonidan "Tashqi dunyoga ochiqlik" siyosatini olib borish islohotlarning muhim yo`nalishiga aylandi. Tashqi dunyodan deyarli to`liq ajralib qolgan Xitoy iqtisodiyoti tashqi aloqalarni yo`lga qo`ya boshladi. Tashqi savdoni isloh qilish uchun avvalo ma'muriy yakkahokimlik va davlat savdo mahkamalarining monopoliyasiga barham berildi. Tashqi savdo faoliyatini olib borishni xohlagan korxonalar uchun cheklashlar, shuningdek, import tariflari kamaytirildi. Ko`pgina mahsulotlar bo`yicha litsenzion nazorat tizimi bekor qilindi, import-eksport narxlari esa jahon narxlariga yaqinlashtirildi[3].

Jahonda faqat yagona Xitoy mavjud, Tayvan XXR hududining ajralmas qismidir. Xitoy bilan diplomatik munosabatlarni o`rnatuvchi davlat Tayvan bilan har qanday shakldagi diplomatik munosabatlarni tugatish to`g`risida bayonot beradi va tugatadi, XXR hukumatini Xitoyning yagona va haqiqiy hukumati ekanligini tan oladi. Xitoy gegemoniya va kuch ishlatish siyosatining har qanday ko`rinishiga qarshi chiqadi. Xitoy hech qachon gegemonizm va ekspansiya siyosatini olib bormaydi.

Xitoy tashqi siyosatidagi yana bir nazariya "yaxlit davlat qudrati" nazariyasidir. Mazkur nazariyaga binoan, zamonaviy sharoitda davlat qudrati va uning xalqaro maydonga ta'siri faqatgina harbiy salohiyat bilan belgilanmaydi, shu bilan birga iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi ham juda muhim ahamiyat kasb etadi.

---

[1] 中国的外交政策 北竟, 1993 年,第 26 页.

[2] Ширков Г.К. Контуры нового мира: усиления многовариантности общественной эволюция // Восток. N 1, 1998.- С.22

[3] Сафоев С.С. Марказий Осиё геосиёсати.//Монография.Т.:ЖИДУ,-2005.- Б.114.

Xitoy tashqi Ishlar Vazirligi ma'lumotlariga ko`ra, Xitoy tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Barcha global muammolarni yechishda o`zining pozitsiyasini ishlab chiqadi. Tashqi bosimga bo`ysunmaydi. Bloklar bilan strategik aloqalar o`rnatmaydi. Qurollanish poygasida ishtirok etmaydi.
2. Gegemonizmga qarshi chiqadi va tinchlikni saqlashga intiladi. Davlatning katta-kichik, boy-kambag`al, kuchli-kuchsizga ajratmaydi va ularni teng o`rinda ko`radi. Muammolarni tinch yo`l bilan yechadi, davlatning ichki ishlariga aralashmaydi.
